MAMLAKATIMIZDA XOTIN – QIZLAR O'RTASIDA MAHALLIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI	1123
Rafiyeva Madina Xusinovna	
YASHIL IQTISODIYOTDA DEPOZIT TIZIMINI SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA BOSHQARISH	1128
Norqobilova Feruza Abduhomidovna, Odilov Jahongir Nozimjonovich	
OPTIMIZING HUMAN CAPITAL: THE IMPACT OF SCHOOL MANAGEMENT ON ORGANIZATIONAL CULTURE IN VOCATIONAL EDUCATION.....	1132
Karimova Dilfuza Xatamjonovna	
QISHLOQ XO'JALIGIDA INVESTITSİYALARINING INNOVATSION MAZMUNI RIVOJLANISHINING DOLZARB YO'NALISHLARI	1138
Batirova Raxima Abdujabbarovna, Raximjonov Ulug'bek Boxodir o'g'li	
IQTISODIY TIZIMLARNI MAKRO VA MIKROIQTISODIY DARAJADA PROGNOZLASH: KONSEPTUAL YONDASHUVLAR VA MODELLASHTIRISH USULLARI	1142
Alimov Fazliddin Xalimovich	
ISLOMIY MOLIYA INSTITUTLARIDA FOIZSIZ MOLIYALASHTIRISH TAMOIYLLARINING IQTISODIY MOHIYATI.....	1147
Pulatova Adolat Djaxangirshyevna	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INNOVASION FAOLIYATNI SAMARALI BOSHQARISH JARAYONLARI	1152
Fayzieva Dilafruz Shuhratovna	
MARKAZIY BANK RAQAMLI VALYUTASI (CENTRAL BANK DIGITAL CURRENCY): NAZARIY ASOSLAR VA XALQARO TA'RIFLARNING QIYOSIY TAHLILI	1156
Tashqo'ziyev Suxrob Abdurazzak o'g'li	
KORXONALARNI MOLIYAVIY INQIROZGA OLIB KELUVCHI SABABLAR VA ULARNI OLDINI OLISH YO'LLARI.....	1161
Bobomirzayev Isroil	
ИНКЛЮЗИВНЫЙ РОСТ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: ПРОБЛЕМЫ, УСЛОВИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ РЕАЛИЗАЦИИ.....	1165
АскарOVA Мавлуда Турабовна	
XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISHDA MOLIYAVIY BOZOR MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	1171
Ibragimov G'anijon G'ayratovich	
BANK TIZIMIDA OPERATSION RISKLARNI BAHOLASH VA MONITORING MEXANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH.....	1176
Muxitdinova Difuza Farxodovna	
KO'P DARAJALI YONDASHUVNING MIKRO, MEZO VA MAKRO DARAJALARDAGI O'ZARO BOG'LIQLIKLARINI ASOSLASH HAMDA MODEL ARXITEKTURASINI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK TAMOIYLLARI	1183
Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li, Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
TIJORAT BANKLARI DAROMAD BAZASINING TARKIBI VA DINAMIKASI ("TURONBANK" ATB MISOLIDA)	1191
Togayev Salim Sobirovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KAPITAL TUZILMASINI OPTIMALLASHTIRISH ORQALI KAPITAL BAHOSINI MINIMALLASHTIRISH MEXANIZMLARI	1196
Obidov Sanjar Omonxo'jayevich	
O'ZBEKISTON XIZMATLAR EKSPORTINING GEOGRAFIK TARKIBINI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI: GRAVITATSION MODEL ASOSIDA TAHLIL	1202
Qodirjonov Adhamjon	



AKSIONERLIK JAMIYATLARDA MOLIYAVIY INVESTITSİYALAR HISOB VA AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA YURITISH	1206
Suyunov Yorqin Bekturodovich	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA TADBIRKORLIK INFRATUZILMASINING INSTITUTSIONAL OMILLARI	1212
Arifbayev Bobur Dilshodovich	
СТРАТЕГИЧЕСКАЯ ESG-ТРАНСФОРМАЦИЯ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ В РАМКАХ СТРАТЕГИИ «УЗБЕКИСТАН – 2030»	1219
Аблаева Валентина Борисовна	
FINANCING A GREEN UNIVERSITY: MECHANISMS, MODELS, AND STRATEGIC DIRECTIONS FOR SUSTAINABLE CAMPUS DEVELOPMENT	1227
I. Imomov, F.Nishonov	
ПОНЯТИЕ И ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНОГО МАРКЕТИНГА В УЗБЕКИСТАНЕ	1234
Шоев Алим Халмуратович	
ANALYZING UZBEKISTAN'S EU EXPORT TRENDS THROUGH THE GENERALIZED SYSTEM OF PREFERENCES PLUS (GSP+) SCHEME	1239
Aziz Zikriyoyev, Rajabova Malika Nuriddin qizi	
ANALYZING UZBEKISTAN'S EU EXPORT TRENDS THROUGH THE GENERALIZED SYSTEM OF PREFERENCES PLUS (GSP+) SCHEME	1239
Aziz Zikriyoyev, Rajabova Malika Nuriddin qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSILAR HISOBIGA ASOSLANGAN XOLATDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI TASHKIL ETISH TARTIBI	1247
Xasanova Xusnoraxon Faxriddinova	
HUDUDIY MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA INVESTITSION FAOLLIKNING ROLI VA UNING RIVOJLANISH MEKANIZMLARI	1251
Ollanazarov Bekturod Davlatmuratovich	
КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ К ИССЛЕДОВАНИЮ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ УНИВЕРСИТЕТОВ	1257
Менглиева Индира Баходировна	
ЦЕНООБРАЗОВАНИЕ НА ЭНЕРГЕТИЧЕСКОМ РЫНКЕ: ВЫЗОВЫ И ВОЗМОЖНОСТИ	1261
Умарбеков Бахром Ботирбекович	
O'ZBEKISTON QAYTA SUG'URTA TIZIMIDA "ALTERNATIVE RISK CAPITAL"NI JORIY ETISH: IQTISODIY MODEL, EMPIRIK TAHLIL VA ME'YORIY TAKLIFLAR (JAHON TAJRIBASI MISOLIDA)	1270
Jorabaev Jasur Abduraxmanovich	
O'ZBEKISTON QAYTA SUG'URTA TIZIMIDA ALTERNATIVE RISK CAPITAL'NI JORIY ETISH: IQTISODIY MODEL, EMPIRIK TAHLIL VA ME'YORIY TAKLIFLAR (JAHON TAJRIBASI MISOLIDA)	1276
Jo'rabayev Jasur Abdurahmonovich	
IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA BOSHQARUV KADRLARINING LIDERLIK SALOHİYATINI BAHOLASH MASALALARI	1282
Rasulov Shohruxbek G'ulomjon o'g'li, Ibragimov Isroil Usmonovich	
SURXONDARYO VILOYATIDA MEVA VA SABZAVOT ISHLAB CHIQRISH KO'RSATKICHLARINING XO'JALIKLAR TOIFALARI BO'YICHA TAHLILI	1286
Majidova Dilnoza Bahromovna	
TURISTIK XIZMATLARNI RIVOJLANTIRISHDA SUN'IY INTEKLEKTNING (SI) TA'SIRI	1290
Begimqulov Javohirbek Jo'raqul o'g'li	
MINTAQADA SANOAT TARMOQLARI RIVOJLANISHIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEKANIZMI VA ZARURLIGI	1300
Xodjaeva Feruza Komilovna	
TOSHKENT VILOYATI HUDUDLARINING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI IQTISODIY FARQLAR TAHLILI	1305
Saidakbarov Saidazam Aziz o'g'li	
KORXONALARDA UMUM ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI HISOBİ	1309
Yax'yayeva Dilfuza Bagdatovna	



ONLAYN BRONLASH TIZIMLARI: TURLARI, XUSUSIYATLARI VA AJRALIB TURUVCHI BELGILARI	1314
S.S. Ismatillaeva	
BUDJET TIZIMI BUDJETLARI IJROSI USTIDAN MOLIYAVIY NAZORATNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	1320
Saidova Kamolat Farhodovna	
КРИМИНОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ФАКТОРОВ, ПОРОЖДАЮЩИХ ЖЕНСКУЮ ПРЕСТУПНОСТЬ: ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ	1326
Нуриллоева Заррина Зокиржоновна	
SAMARQAND VILOYATI MEHMONXONA XO'JALIGIDA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TURISTLAR OQIMINI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	1331
Amiriddinova Madinabonu Zayniddin qizi	
SOLIQ YUKINI HISOBLASH VA UNGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILINING METODOLOGIK JIHATLARI	1334
Abdullayev Abror Bozarboyevich	
ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТЬ ТРУДА В МАЛОМ БИЗНЕСЕ: ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ РЕЗЕРВЫ РОСТА И РОЛЬ ОБУЧЕНИЯ ПЕРСОНАЛА.....	1341
Аминжоновна Вазира Мамасидиковна	
DZYUDOCHILARDA USHLAB OLISH (KUMI-KATA) STRATEGIYASINING MUSOBAQA NATIJALARIGA TA'SIRI.....	1350
Shermatov Gulom Qaxxorovich	
G'AZNACHILIK TIZIMIDA RISKLARNI ANIQLASH VA NAZORAT TADBIRLARINI TAKOMILLASHTIRISH CHORALARI	1357
Xasanov Adiz Xusenovich	
O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOTNING HOZIRGI HOLATI HAMDA UNI QISQARTIRISHGA QARATILGAN IQTISODIY ISLOHOTLAR.....	1363
Beknazarov Behzod Baxtiyorovich	
IMPROVEMENT OF THE COMMERCIAL BANK PRIVATIZATION PROCESS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	1368
Djumaniyazov Islam Karimbayevich	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SOHASI INVESTITSION VA EKSPORT SALOHİYATI TAHLILI	1374
Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich	
TIJORAT BANKLARIDA RISK-MENEJMENTI SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	1378
Madaminov Bekzod Allayarovich	
IQLIM O'ZGARISHLARI VA XAVF OMILLARI SHAROITIDA AGRAR BIZNESDA XARAJATLAR TAHLILI VA XATARLARNI BOSHQARISH.....	1383
Mamadiyarov Dilshad Uralovich, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
TA'LIM TIZIMINING BOSHQARUVIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH VA YASHIL IQTISODIYOTNING O'RNI	1387
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
ПОВЫШЕНИЕ ЭКСПОРТНОЙ РЕЗУЛЬТАТИВНОСТИ НА ОСНОВЕ ЭФФЕКТИВНОЙ ЛОГИСТИКИ И УПРАВЛЕНИЯ ЦЕПОЧКАМИ ПОСТАВОК	1392
Каримова Хулкар Рахманали кизи, Махмутуллаева Севинч Хабибулла кизи	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DIVERSIFIKATSIYALASHNING METODOLOGIK ASOSLARI	1399
Norova Nozima Nabiyeвна	



TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DIVERSIFIKATSIYALASHNING METODOLOGIK ASOSLARI

Norova Nozima Nabiyeвна

Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv
va texnologiyalar universitetining
Iqtisodiyot va boshqaruv kafedrası
dotsent v.b., PhD

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimiz bank tizimida kredit risklarini boshqarish metodologiyasining amaldagi holati, uni qo'llash mexanizmlari hamda so'nggi yillarda shakllanib borayotgan rivojlanish tendensiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida tijorat banklarida kredit riskini aniqlash, baholash, monitoring qilish va minimallashtirishda foydalanilayotgan usullar, xalqaro standartlar (Basel talablari) bilan uyg'unlik darajasi o'rganiladi. Shuningdek, kredit portfeli sifati, muammoli kreditlar ulushi va risklarni boshqarishda raqamli texnologiyalarning o'rni yoritib beriladi. Tadqiqot natijalari asosida banklarda kredit risklarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish, zamonaviy risk-menejment yondashuvlarini joriy etish hamda moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash bo'yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: bank tizimi, kredit risklari, risklarni boshqarish, kredit portfeli, muammoli kreditlar, risk-menejment, Basel talablari, kredit siyosati, moliyaviy barqarorlik, raqamli texnologiyalar.

Abstract. This article analyzes the current state of the methodology for managing credit risks in the banking system of our country, the mechanisms of its application, as well as the development trends that have emerged in recent years. The study examines the methods used in commercial banks to identify, assess, monitor, and minimize credit risks, as well as the degree of their compliance with international standards (Basel requirements). In addition, the quality of the loan portfolio, the share of non-performing loans, and the role of digital technologies in risk management are highlighted. Based on the research findings, scientific and practical proposals and recommendations are developed to further improve the credit risk management system in banks, introduce modern risk management approaches, and strengthen financial stability.

Key words: banking system, credit risks, risk management, loan portfolio, non-performing loans, risk management, Basel requirements, credit policy, financial stability, digital technologies.

Аннотация. В данной статье анализируется текущее состояние методологии управления кредитными рисками в банковской системе нашей страны, механизмы её применения, а также тенденции развития, сформировавшиеся в последние годы. В процессе исследования рассматриваются методы, используемые в коммерческих банках для выявления, оценки, мониторинга и минимизации кредитных рисков, а также степень их соответствия международным стандартам (требованиям Базеля). Кроме того, освещается качество кредитного портфеля, доля проблемных кредитов и роль цифровых технологий в управлении рисками. По результатам исследования разработаны научно-практические предложения и рекомендации, направленные на дальнейшее совершенствование системы управления кредитными рисками в банках, внедрение современных подходов риск-менеджмента и укрепление финансовой устойчивости.

Ключевые слова: банковская система, кредитные риски, управление рисками, кредитный портфель, проблемные кредиты, риск-менеджмент, требования Базеля, кредитная политика, финансовая устойчивость, цифровые технологии.



KIRISH

Hozirgi globallashuv sharoitida bank tizimining barqaror faoliyat yuritishi, avvalo, kredit risklarini samarali boshqarish darajasiga bevosita bog'liqdir. Jahon moliyaviy bozorlarida yuz berayotgan beqarorlik, makroiqtisodiy xavflarning kuchayishi, geosiyosiy omillar va pandemiya kabi kutilmagan holatlar bank sektorida kredit risklarining oshishiga olib kelmoqda¹. Xususan, 2008-yilgi global moliyaviy inqiroz va undan keyingi davr tajribasi kredit risklarini yetarli darajada boshqara olmagan banklar moliyaviy barqarorlikni yo'qotishini yaqqol namoyon etdi². Shu sababli, kredit risklarini boshqarish metodologiyasini takomillashtirish jahonda bank tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Jahon miqyosida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda kredit risklarini boshqarish bank risk-menejmentining asosiy tarkibiy qismi sifatida e'tirof etiladi³. Xorijiy olimlar kredit riskini aniqlash, baholash va monitoring qilishda statistik modellar, scoring va reyting tizimlari, stress-testlar hamda portfel yondashuvining ahamiyatini asoslab berganlar⁴. Xalqaro amaliyotda Basel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan Basel II va Basel III standartlari kredit riskini o'lchash, kapital yetarililigini ta'minlash hamda bank tizimining barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan yagona yondashuvlarni belgilab berdi. Ushbu standartlar asosida banklar kredit risklarini chuqurroq tahlil qilish, kutilayotgan kredit yo'qotishlarini baholash va risklarni kamaytirishga yo'naltirilgan mexanizmlarni joriy etmoqdalar.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda bank tizimini isloh qilish, tijorat banklari faoliyatini bozor tamoyillari asosida rivojlantirish hamda kredit risklarini boshqarish tizimini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda⁵. Mamlakatimiz Prezidenti tomonidan qabul qilingan bank-moliya sohasini rivojlantirishga qaratilgan farmon va qararlarda banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, muammoli kreditlar ulushini qisqartirish, risk-menejment tizimlarini xalqaro standartlar asosida rivojlantirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Xususan, bank tizimini transformatsiya qilish, davlat ulushi yuqori bo'lgan banklar faoliyatini isloh etish, kreditlash jarayonida shaffoflikni oshirish va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, amaliyotda bir qator muammolar ham mavjud bo'lib, ular kredit risklarini boshqarish samaradorligini pasaytirishi mumkin. Jumladan, ayrim banklarda kredit portfelining tarmoq va hududlar bo'yicha yuqori darajada konsentratsiyalashuvi, muammoli kreditlarni erta aniqlash mexanizmlarining yetarli darajada ishlamasligi, garov ta'minotini baholash va qayta baholashdagi kamchiliklar, shuningdek zamonaviy raqamli va analitik modellarni qo'llash darajasining pastligi ushbu muammolar jumlasidandir. Mazkur holatlar kredit risklarini boshqarish metodologiyasini chuqur ilmiy tahlil qilish va uni takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Shundan kelib chiqib, ushbu maqolada mamlakatimiz bank tizimida kredit risklarini boshqarish metodologiyasining amaldagi holatini tahlil qilish, jahondagi ilg'or tajribalar bilan solishtirish hamda mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish maqsad qilib qo'yilgan. Tadqiqot natijalari banklarda kredit risklarini samarali boshqarish orqali moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash va bank tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda kredit riski bank risklari ichida eng muhim va keng tarqalgan risk turi sifatida e'tirof etiladi⁶. Bank daromadlarining asosiy qismi kredit operatsiyalariga to'g'ri kelgani sababli, kredit portfeli sifati bankning moliyaviy barqarorligi va obro'siga bevosita ta'sir ko'rsatadi⁷. J. Sinkey kredit riskini boshqarishni bankning strategik boshqaruv tizimining markaziy elementi sifatida baholab, ushbu jarayon kredit siyosati, ichki nazorat va portfel monitoringi bilan uzviy bog'liq bo'lishi zarurligini ta'kidlaydi⁸. E. Altman tomonidan ishlab chiqilgan Z-score modeli kreditga layoqatlilikni baholashda keng qo'llanilib, bankrotlik xavfini oldindan aniqlash imkonini beradi⁹. A. Saunders va M. Cornett esa kredit riskini boshqarishda portfel yondashuvi, ya'ni kreditlarni konsentratsiya va diversifikatsiya darajasi, shuningdek stress-testlar va ssenariy tahlilining ahamiyatini asoslab beradilar. Basel II va Basel III standartlari kredit riskini o'lchash va kapital yetarililigini ta'minlash bo'yicha xalqaro yondashuvlarni belgilab, bank risk-menejmentini takomillashtirishga xizmat qiladi¹⁰.

1 Sinkey J. Commercial Bank Financial Management. – New York: Macmillan, 2015.

2 Basel Committee on Banking Supervision. Basel II, Basel III. – BIS, 2018.

3 Saunders A., Cornett M. Financial Institutions Management: A Risk Management Approach. – McGraw-Hill, 2019.

4 Altman E. Financial Ratios, Discriminant Analysis and the Prediction of Corporate Bankruptcy. – Journal of Finance, 1968.

5 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bank-moliya sohasini rivojlantirishga oid farmon va qarorlari (2020–2024 yy.).

6 Sinkey J. Commercial Bank Financial Management, 2015

7 Saunders A., Cornett M. Financial Institutions Management, 2019

8 Sinkey J., 2015

9 Altman E. Financial Ratios, Discriminant Analysis and the Prediction of Corporate Bankruptcy. – Journal of Finance, 1968.

10 Basel Committee on Banking Supervision, Basel III, 2018



MDH mamlakatlari olimlari kredit risklarini boshqarishni o'tish iqtisodiyoti sharoitida bank tizimi barqarorligini ta'minlash bilan bog'liq holda o'rganadilar¹¹. O.I. Lavrushin kredit riskini bankning kredit siyosati va kreditlash texnologiyasi bilan uzviy bog'lab, kreditlash standartlari va portfel monitoringi muhimligini ta'kidlaydi¹². G.G. Korobova kredit riskini baholashda qarz oluvchining moliyaviy holati bilan bir qatorda makroiqtisodiy omillarni ham hisobga olish zarurligini qayd etadi¹³. Tadqiqotlarda muammoli kreditlar ulushining oshishi bank kapitali va kreditlash faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi alohida ta'kidlanadi¹⁴.

O'zbekistonlik olimlar kredit risklarini boshqarish masalalarini milliy bank tizimini modernizatsiya qilish va xalqaro standartlarni joriy etish jarayonlari bilan bog'liq holda tahlil qiladilar. B.X. Xodiev risk-menejment tizimini takomillashtirish bank tizimi barqarorligining muhim sharti ekanligini ta'kidlaydi¹⁵. Sh.A. Mustafakulov kredit risklarini kamaytirishda zamonaviy scoring va reyting tizimlari, pul oqimlari tahlilining ahamiyatini asoslaydi¹⁶. A.V. Vaxabov esa xalqaro bank standartlarini milliy amaliyotga moslashtirish kredit risklarini boshqarish samaradorligini oshirishini ko'rsatadi¹⁷.

Muallif fikriga ko'ra, so'nggi yillarda mamlakatimiz banklarida kredit risklarini boshqarish tizimi sezilarli darajada rivojlandi. Biroq kreditlashda ma'lumotlar sifati, konsentratsiya risklarini chuqur baholash va muammoli kreditlarni erta aniqlash bilan bog'liq muammolar saqlanib qolmoqda. Shu bois kredit risklarini boshqarishda raqamli texnologiyalar, IFRS 9 asosidagi kutilayotgan kredit yo'qotishlari modeli, stress-testlar va portfel monitoringini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro tajriba va milliy xususiyatlarni uyg'unlashtirish bank tizimi barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda banklarda kredit risklarini boshqarish metodologiyasini o'rganishda tizimli va kompleks yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiyalash, tahlil va sintez, taqqoslash hamda umumlashtirish usullari qo'llanildi. Kredit risklarini baholash va boshqarish amaliyotini o'rganishda tijorat banklarining kredit portfeli ko'rsatkichlari, muammoli kreditlar ulushi hamda risk-menejment mexanizmlari tahlil qilindi. Shuningdek, xalqaro standartlar (Basel II va Basel III) talablari bilan milliy bank amaliyoti solishtirildi. Tadqiqot natijalarini asoslashda statistik ma'lumotlar tahlili va ekspert baholash usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida mamlakatimiz tijorat banklarida kredit risklarini boshqarish tizimining amaldagi holati tahlil qilindi. O'rganishlar shuni ko'rsatdiki, so'nggi yillarda banklarda kredit risklarini boshqarishga doir me'yoriy-huquqiy baza va ichki kredit siyosatlari takomillashgan bo'lsa-da, kredit portfeli sifati va risklarni baholash samaradorligi banklar kesimida bir xil darajada emas. Ayrim banklarda kredit portfelining tarmoq va hududlar bo'yicha yuqori darajada konsentratsiyalashuvi kredit risklarining ortishiga olib kelmoqda.

Tahlil natijalariga ko'ra, muammoli kreditlar ulushi kredit risklarini boshqarish tizimi samaradorligini aks ettiruvchi asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Muammoli kreditlar hajmining oshishi banklarning daromadliligiga va kapital yetarililigiga salbiy ta'sir ko'rsatib, kreditlash faolligini cheklaydi. Shu bilan birga, kredit risklarini baholashda an'anaviy moliyaviy ko'rsatkichlar bilan cheklanish, zamonaviy scoring va prognozlash modellariidan yetarli darajada foydalanilmasligi aniqlanmoqda.

Shuningdek, tahlil kredit portfelini monitoring qilish va muammoli kreditlarni erta aniqlash mexanizmlarining ayrim banklarda sust ishlayotganini ko'rsatdi. Xalqaro amaliyot bilan taqqoslaganda, Basel II va Basel III talablariga mos stress-testlar va kutilayotgan kredit yo'qotishlarini baholash (IFRS 9) tizimlarining joriy etilishi to'liq yakunlanmagan. Bu holat kredit risklarini kompleks boshqarish samaradorligini pasaytiradi.

Olib borilgan tahlillar asosida kredit risklarini boshqarishni yanada takomillashtirish bo'yicha bir qator natijalar shakllantirildi. Jumladan, kredit portfelini diversifikatsiya qilishni kuchaytirish, zamonaviy raqamli va analitik modellarni joriy etish, kredit monitoringini avtomatlashtirish hamda muammoli kreditlarni boshqarish bo'yicha maxsus mexanizmlarni rivojlantirish zarurligi aniqlandi. Ushbu chora-tadbirlar banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va kredit risklarini samarali boshqarishga xizmat qiladi.

11 Лаврушин О.И. Банковские риски и управление ими, 2017

12 Лаврушин О.И., 2017


13 Коробова Г.Г. Банковское дело, 2018

14 Korobova G.G., 2018

15 Ходиев Б.Х. Банк иши ва риск-менежмент, 2020

16 Мустафакулов Ш.А. Тижорат банкларида кредит рискларини бошқариш, 2021

17 Вахабов А.В. Тижорат банклари фаолиятини бошқариш, 2019


1-rasm. Muammoli kreditlar ulushi dinamikasi tahlili¹⁸

1-rasm ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda tijorat banklarida muammoli kreditlar ulushi pasayish tendensiyasiga ega. Xususan, 2021–2024-yillar oralig'ida mazkur ko'rsatkich 6,2 foizdan 4,6 foizgacha kamaygan. Bu holat banklarda kredit risklarini boshqarish tizimining nisbatan takomillashgani, kreditlash jarayonida ehtiyotkorlikning oshgani hamda muammoli kreditlar bilan ishlash mexanizmlarining kuchayganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, muammoli kreditlar ulushi hanz kredit risklarini boshqarishda asosiy xavf manbalaridan biri bo'lib qolmoqda.

1-jadval. Tijorat banklarida kredit risklarini boshqarish ko'rsatkichlari (2021–2024-yillar)¹⁹

Ko'rsatkichlar	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil
Kredit portfeli hajmi (mlrd so'm)	100	115	130	145
Muammoli kreditlar ulushi (%)	6,2	5,8	5,1	4,6
Kredit portfeli diversifikatsiya darajasi* (%)	62	65	68	72
Skoring tizimidan foydalanish (%)	60	65	68	70
Stress-testlashni qo'llash (%)	45	50	53	55
IFRS 9 asosida baholash (%)	35	42	47	50

1-jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, 2021–2024-yillar davomida tijorat banklarida kredit portfeli hajmi izchil o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Xususan, kredit portfeli 2021-yildagi 100 mlrd so'mdan 2024-yilda 145 mlrd so'mgacha oshgan bo'lib, bu banklar tomonidan real sektor va aholini kreditlash faolligi kengayganini anglatadi. Kredit portfeli hajmining o'sishi, odatda, bank daromadlarini oshirish bilan birga, kredit risklarining ham ortish ehtimolini kuchaytiradi. Shunga qaramay, jadvalda muammoli kreditlar ulushining 6,2 foizdan 4,6 foizgacha pasaygani kuzatiladi. Bu holat kredit risklarini boshqarish tizimi nisbatan takomillashganini, kreditlash jarayonida risklarni aniqlash va nazorat qilish mexanizmlari kuchayganini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, jadvaldan ko'rinishicha, kredit portfelining diversifikatsiya darajasi ham 62 foizdan 72 foizgacha oshgan. Diversifikatsiya darajasi kredit portfelining tarmoq va hududlar bo'yicha muvozanatlashganlik darajasini ifodalaydi. Ya'ni kredit resurslari bir yoki bir necha tarmoq (masalan, faqat sanoat) yoki bitta hududda haddan tashqari jamlanib qolmasa, bankning konsentratsiya riski kamayadi. Diversifikatsiya ko'rsatkichining o'sishi banklarda kredit portfelini turli tarmoqlar va mijoz segmentlari bo'yicha taqsimlashga bo'lgan e'tibor ortayotganidan dalolat beradi.


Shuningdek, risk-menejmentning zamonaviy vositalaridan foydalanish darajasi ham ijobiy dinamikani ko'rsatmoqda. Xususan, skoring tizimidan foydalanish 60 foizdan 70 foizgacha oshgan bo'lib, bu qarz oluvchini baholash jarayonlarida avtomatlashtirilgan yondashuvlar kengayib borayotganini bildiradi. Stress-testlashni qo'llash darajasi 45 foizdan 55 foizgacha, IFRS 9 asosida baholash esa 35 foizdan 50 foizgacha oshgani

¹⁸ Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

¹⁹ Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining yillik hisobotlari (2021–2024 yy.) asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.



kuzatiladi. Mazkur o'sish banklarda kredit riskini oldindan prognozlash, kutilayotgan kredit yo'qotishlarini baholash va ehtimoliy salbiy ssenariylarga tayyor turish imkoniyatlari bosqichma-bosqich kuchayib borayotganini anglatadi. 1-jadval natijalari banklar kredit portfeli kengayayotgan sharoitda ham muammoli kreditlar ulushini pasaytirishga erishayotganini ko'rsatadi. Biroq stress-testlash va IFRS 9 kabi ilg'or baholash mexanizmlarini joriy etish darajasi hali ham to'liq yuqori bosqichga chiqmagan. Shu sababli, ushbu yo'nalishlarda metodologik va texnologik imkoniyatlarni yanada kengaytirish kredit risklarini boshqarish samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib qoladi.



2-rasm. Kredit portfelining tarmoqlar bo'yicha tarkibi tahlili²⁰

2-rasmdan ko'rinib turibdiki, kredit portfelining katta qismi sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlariga to'g'ri keladi. Ushbu tarmoqlarda kreditlar ulushining yuqori bo'lishi banklar uchun konsentratsiya riskining kuchayishiga olib kelishi mumkin. Xizmatlar sohasi va chakana kreditlar ulushi nisbatan past bo'lib, bu kredit portfelini diversifikatsiya qilish imkoniyatlari yetarli darajada foydalanilmayotganini ko'rsatadi. Shuning uchun kredit portfelini tarmoqlar kesimida muvozanatlashtirish kredit risklarini kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

2-jadval. Tijorat banklarida kredit risklarini boshqarish tizimining asosiy elementlari va ularning amaliy holati²¹


Kredit risklarini boshqarish elementlari	Amaliy holati	Tavsif
Kredit siyosati	O'rta darajada	Kreditlash mezonlari mavjud, biroq ayrim banklarda tarmoq va hududiy limitlar yetarli darajada aniq belgilanmagan
Qarz oluvchini baholash (skoring)	Qisman joriy etilgan	Asosan moliyaviy ko'rsatkichlarga tayaniladi, zamonaviy skoring modellaridan foydalanish cheklangan
Kredit portfeli monitoringi	O'rta darajada	Monitoring tizimi mavjud, ammo erta ogohlantirish indikatorlari to'liq ishlamaydi
Stress-testlash	Past darajada	Stress-testlar muntazam o'tkazilmaydi yoki qaror qabul qilishga yetarlicha integratsiya qilinmagan
Muammoli kreditlar bilan ishlash	O'rta darajada	Qayta restrukturizatsiya mexanizmlari mavjud, biroq samaradorlik banklar kesimida farqlanadi
IFRS 9 asosida baholash	Bosqichma-bosqich	Kutilayotgan kredit yo'qotishlari modeli joriy etilmoqda, metodologiya to'liq shakllanmagan
Raqamli texnologiyalardan foydalanish	O'rta darajada	Avtomatlashtirish darajasi oshmoqda, ammo Big Data va AI texnologiyalari cheklangan

20 Manba: Tijorat banklarining ichki risk-menejment amaliyoti hamda xalqaro standartlar (Basel II, Basel III, IFRS 9) asosida muallif tomonidan tuzilgan.

21 Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki me'yoriy-huquqiy hujjatlari, tijorat banklarining ichki risk-menejment amaliyoti hamda muallif tahlillari asosida tuzilgan.



2-jadvaldan ko'rinib turibdiki, tijorat banklarida kredit risklarini boshqarish tizimining asosiy elementlari shakllangan bo'lsa-da, ularning amaliy samaradorligi bir xil darajada emas. Ayniqsa, stress-testlash, zamonaviy skoring va raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi yetarli emasligi kredit risklarini boshqarish samaradorligini cheklamoqda.



3-rasm. Kredit risklarini boshqarish usullaridan foydalanish darajasi tahlili²²

3-rasm tahlili shuni ko'rsatadiki, banklarda kredit risklarini boshqarishda skoring va kredit monitoringi usullaridan foydalanish darajasi nisbatan yuqori. Biroq stress-testlash va IFRS 9 asosida kutilayotgan kredit yo'qotishlarini baholash mexanizmlarining qo'llanilishi yetarli darajada emas. Bu holat kredit risklarini kompleks va oldindan prognozlash imkoniyatlarini cheklaydi. Shu sababli zamonaviy risk-menejment usullarini joriy etish banklar moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, so'nggi yillarda mamlakatimiz tijorat banklarida kredit risklarini boshqarish tizimi bosqichma-bosqich takomillashib bormoqda. Kredit portfeli hajmining oshishi fonida muammoli kreditlar ulushining kamayishi banklarda kreditlash jarayoniga nisbatan ehtiyotkorlik kuchayganini hamda risk-menejment mexanizmlarining ma'lum darajada samaradorligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, kredit portfelining tarmoq va hududlar bo'yicha konsentratsiyalashuvi, zamonaviy baholash va prognozlash modellaridan yetarli darajada foydalanilmasligi kredit risklarini boshqarishda muhim muammolar sifatida saqlanib qolmoqda.

Tahlil jarayonida aniqlanishicha, kredit risklarini boshqarishda skoring va monitoring tizimlari nisbatan faol qo'llanilayotgan bo'lsa-da, stress-testlash hamda IFRS 9 asosida kutilayotgan kredit yo'qotishlarini baholash mexanizmlarining amaliyotga to'liq joriy etilmaganligi banklarda risklarni kompleks va oldindan baholash imkoniyatlarini cheklamoqda. Shuningdek, muammoli kreditlarni erta aniqlash va ular bilan ishlash samaradorligi banklar kesimida bir xil darajada emasligi kuzatildi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, kredit risklarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni bildirish mumkin:

1. Kredit portfelini tarmoq va hududlar kesimida yanada diversifikatsiya qilish orqali konsentratsiya risklarini kamaytirish;
2. Kredit risklarini baholashda zamonaviy raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va Big Data asosidagi skoring modellarini joriy etish;
3. Stress-testlash mexanizmlarini muntazam qo'llash va ularning natijalarini kredit siyosati hamda kapital rejalashtirish jarayonlariga integratsiya qilish;

²² Manba: Tijorat banklarining ichki risk-menejment amaliyoti hamda xalqaro standartlar (Basel II, Basel III, IFRS 9) asosida muallif tomonidan tuzilgan.



4. IFRS 9 talablariga muvofiq kutilayotgan kredit yo'qotishlarini baholash metodologiyasini yanada chuqurlashtirish;

5. Muammoli kreditlarni erta aniqlash va ularni boshqarish bo'yicha maxsus "workout" mexanizmlarini kuchaytirish.

Mazkur takliflarning amaliyotga joriy etilishi tijorat banklarida kredit risklarini samarali boshqarish, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash hamda bank tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bank-moliya sohasini rivojlantirishga oid farmon va qarorlari (2020-2024 yy.).
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Tijorat banklari faoliyatiga oid yillik hisobotlar va statistik ma'lumotlar (2021-2024 yy.).
3. Basel Committee on Banking Supervision. Basel II, Basel III: International regulatory framework for banks. - BIS, 2018.
4. Sinkey J. Commercial Bank Financial Management. - New York: Macmillan, 2015.
5. Saunders A., Cornett M. Financial Institutions Management: A Risk Management Approach. - McGraw-Hill, 2019.
6. Altman E. Financial Ratios, Discriminant Analysis and the Prediction of Corporate Bankruptcy. -Journal of Finance, 1968.
7. Lavrushin O.I. Bankovskie riski i upravlenie imi. - Moskva: KNORUS, 2017.
8. Korobova G.G. Bankovskoe delo. - Moskva: Yurait, 2018.
9. Xodiev B.X. Bank ishi va risk-menejment. - Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2020.
10. Mustafakulov Sh.A. Tijorat banklarida kredit risklarini boshqarish. - Toshkent, 2021.
11. Vaxabov A.V. Tijorat banklari faoliyatini boshqarish. - Toshkent, 2019.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
